



TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 02 2022 YIL 21 FEVRAL

Ayol borki, olam munavvar!

BAYRAM MUBORAK BO'LSIN!



Hurmatli, muhtarama ayollar, professor-o'qituvchilar, Toshkent tibbiyot akademiyasining faxri bo'lmish ziyoli opan-singilar, tibbiyot ravnaga munosib hissa qo'shish niyatida ta'lum olib, o'rjanayotgan, izlanayotgan talaba qizlarim.

Barchangizni yaqinlashib kelayotgan babor bayrami hamda Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin dildan samimi tabrikayman. Bahorning ilk bayrami 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni barchangizga muborak bo'lsin!

Ana shu maftunkor va go'zal faslining ilk bayrami esa mo'tabar ayollarimiz bayrami bilan boshlanadi. Qadimdan sharqda ayollarga yuksak ehtirom ko'rsatib keltingan. Ayol - tabiatning betakror mo'jizasi, eng buyuk hilqat deya ta'rifu tavsiif berilgan. Aslida ham shunday. Ayol buyuk va mukarram zot.

Yurtimizda olib borilayotgan, amalga oshirilayotgan ishlar albatta inson salomatligini muhofazasiga qaratilgani bilan ahamiyatlari. Jumladan, Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi "Inson qadri uchun 100 ta maqsad"ni o'z ichiga olgan. Shundan 11 tasi bevosita tibbiyot sohasiga daxldor. Strategiyada tibbiyot tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, aholiga yanada yaqinlashtirish, bir so'z bilan aytganda, xalqimizni rozi qilish bosh mezon etib

belgilandi. Taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan barcha masalalar "Davlat - inson uchun" degan ezgu g'oyani hayotga tatiq etishga qaratilgan.

Aytish joizki Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy, tashkiliy va boshqa jarayonlarda qo'lg'a kiritilayotgan yutuqlarni ayollarning ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularning mehnatdagi, ilmiy-iiodiy izlanishdagi va o'quv jarayonidagi fidoyiliginini hamisha yuksak qadrlyamiz. Bilimli, zukko, har tomonlama or'nak olsa arziyidan talaba qizlarimiz safi yil sayin ortib borayotganligi bizni quvontiradi. Biz shunday yoshlarimiz borligi bilan faxrlanamiz.

Kichikkina jussasida olam tashvishini ko'tarib yursada, yuzidan tabassumi arimagan, farzandlari baxtu kamolini har qanday ne'matdan ustun bilgan sadoqat farishtalari bugun milliy tibbiy ta'limi jahon andozalarini darajasiga olib chiqayotganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Hurmatli akademiyamizning faxri bo'lmish professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar, suyukli qizlarimiz sizlarga mustahкам sog'lik, oilaviy baxt, xonardonlarigizinga tinchlik, osoyishtalik va fayzu baraka tilayman. Ilmiy va ijodiy ishlaringiz, oqishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar va omadlar yor bo'lsin.

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori
A.SHADMANOV

YANGI O'ZBEKISTON YANGI TARAQQIYOT YO'LIDA



"TARAQQIYOT STRATEGIYASI"

Mamlakatimizda keng qamrovli izchil islohotlar amalga oshirilmoqda, ushbu islohotlar inson manfaatlarini yuksaltirish, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlarga qaratildi.

So'nggi 5 yil mobaynida rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etilmoqda, shu bilan Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratildi.

Shu bilan birgalikda milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinnari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lif xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

(Davomi 4-betda)


Hikmat



Ayol kishiga avvalo Ona deb qarasak, hammasi joy-joyiga tushadi.

Hikmat





Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni «shams ul-millat» — millat quyoshi deb hamma davrlarda e'zoz bilan tilga oladi. Butun umrini turkiy til mavqeyini ko'tarish, turkiy adabiyot imkoniyatlarini dunyoga tan oldirish, turkiy davlatchilik asoslarini mustahkamlashga, jamiyatda haqiqat va adolat mezonlarini qaror toptirishga bag'ishlagan bobokalonimiz bu e'tirofga to'la-to'kis munosib va haqlidir.

SO'Z MULKINING SULTONI

Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Xuroson o'lkasining poytaxti Hirota tug'ildi. Zamondoshlari uni «Nizomiddin Mir Alisher» deb ulug'laganlar. «Nizomiddin» — din nizomi deganidir. Navoiyning otasi G'iyosiddin Muhammad temuriylarga yaqin amaldochlardan bo'lib, o'z davrining obro'li va ma'rifatlari kishilaridan sanalgan. Adabiyotshunos Davlatshoh Samarcandiyning yozishchiga, u o'gli Alisherning tarbiyasiga, kelajakda fazilatli odam bo'lib yetishmog'i uchun astoydil harakat qilgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Kichik mакtab yoshida fors shoiri Farididdin Attorning kattalar ham tushunishi qiyin bo'lgan «Mantiq ut-tayr» dostonini fors tilida o'qib ham uqib yod olgani uning yoshlik iste'dodining muhim qirralaridan edi.

She'rga mehr Alisherni ijodga undadi. U 7-8 yoshlaridan she'r yoza boshladi. O'zbekcha she'rlariga «Navoiy», forscha she'rlariga «Foniy» taxallusunu qo'ydi.

O'smirlik davrlarida Alisher o'qish va yozishda tinim bilmas, she'r mutolaasidan charchamas edi. «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida o'zining yoshlik chog'ida mashhur o'zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) she'rni yod bilganini so'zlaydi. Bolalik vaqtlaridayoq o'z davrining Amir Shohiy, Lutfiy, Kamol Turbatiy kabi shoirlari bilan yaqindan aloqada bo'ldi. Otasi vafotidan so'ng taniqli ilm va adabiyot, san'at arboblaridan Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabilar otalik qildilar. Sabzavorlik olim va shoir Darvesh Mansurdan aruz bo'yicha ta'lim oldi.

Navoiy 1460 yillarning ikkinchi yarmida Samarcandda yashadi. Temurbek poytaxt qilgan bu ko'hna shahar uning hayotida o'chmas iz qoldirdi. Bu yerda o'z davrining yetuk olimlaridan, xususan, shu kungacha asarlar Islom olamida mot'tabar sanalib kelayotgan Fazlulloh Abulays Samarcandiyedek allomadan saboq oldi. Keyinchalik bu shaharni o'z asarlarida «firdevsmonand» (jannatmisol) deb ta'rif etdi. Bu yerda shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. Bir devonga yetib ortadigan asarlar bo'lishiga qaramay, kamtarlik tufayli bo'lsa kerak, o'zi tartib bermaganligi uchun 1465-1466 yillarda uning muxlislari she'rlarini to'plab, «Devon» tuzdilar. Bu kitob bugungi kunda shartli ravishda «llk devon» deb nomlanadi.

Davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining sevimli mashg'uloti — badiiy ijodni ham to'xtatmadи. 1472-1476 yillarda «Badeo ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosis»), 1476-1483 yillarda «Navodir un-nihoya» («Tuganmas nodirliklar») nomlari bilan ikki devon tuzdi.

1483 yilda turkiy tilda birinchi bo'lib «Xamsa» yozishiga kirishdi va misli ko'rilmagan qisqa muddat — ikki yilda besh yirik dostondan iborat asarni yozib tugatdi. Ilm va ijod ahli bu voqeani zo'r shodliklar bilan qarshi oldi. Abdurahmon Jomiy Navoiy

«Xamsa»siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni o'zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko'chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa edi: qudratli davlatning shavkatli podshohi bir shoirga jilovdorlik qilsa. Mazkur hodisa ayni paytda Husayn Boyqaroning ma'nан yuksak, ma'rifatli va haqiqatpesha hukmdor bo'lganligining dalilidir. Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida bejiz uni Shoh G'oziy deya ulug'lamagan edi.

Navoiy fanning bir necha sohalarida qalam tebratib, zabardast olim ekanligini ham isbot etdi. Otmish mavzusida «Tarixi mulki Ajam» («Ajam, ya'ni arab bo'lmagan mamlakatlar tarixi»), «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg'ambarlar va donishmandlar tarixi») asarlarini yozgan. Turkiy adabiyotshunoslikda ham uning alohida o'rni bor. Aruzga doir «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchoviy»), tazkirachilikka oid «Majolis un-nafois» («Nafis majlislar») kabi asarlar yaratdi. Bular o'zbek (turk) tilida shu sohalardagi birinchi asarlar edi. Buyuk shoir tilshunoslik bilan ham qiziqdi. Lug'atshunoslikka oid «Sab'atu abhur» («Yetti dengiz») nomli kitob yozdi. Ayniqsa, «Muho-kamat ul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarida turk (o'zbek) va (fors) tillarini solishtirib, o'z ona tilining tunganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi.

Shuningdek, fors tilini mukammal bilgan va unda ham barakali ijod qilgan shoir bu tilda yozgan she'rlarini to'plab «Devoni Foniy»ni tuzdi.

Buyuk adib umrining oxiriga qadar ilm-u ijod bilan qizg'in va samarali shug'ullandi. Sharqda o'tgan mashhur shayxlar, so'fiyalar hayoti haqida ma'lumot beruvchi «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabadalar») asarini yozib tugatdi. So'ng umr bo'yи xayolini band etgan «Lison ut-tayr»ni qo'qozga tushirdi. Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari — xatlarini to'plab «Munshaot» («Xatlar») tuzdi. 1500 yilda buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o'zida ifodalagan «Mahbub ul-qulub» («Ko'ngillarning sevgani») asari maydonga keldi. Bu buyuk adibning so'nggi asari edi.

Buyuk davlat arbobi, so'z mulkining sultoni Mir Alisher Navoiy ijodi bugungi kunda dunyo miqyosida katta qiziqish va e'tirof bilan o'rganilmoqda. Asarlaridagi bosh g'oya asrlar davomida o'z mavqeyini yo'qotmay kelmoqda. Alisher Navoiy she'riyati, uning o'lmas asarlar doimo barhayotdir.

Nigora HAKIMOVA,
TTA akademik litseyi Yoshlar masalasi ma'naviy ma'rifiy
ishlari bo'yicha direktor o'rinososari,
Fotima IRSALIYEVA,
tibbiyot fanlari doktori



«BOBURNOMA»NING MILLIY TARIXCHILIGIMIZNI O'RGANISHDAGI O'RNI


“Moziyga qaytib ish ko'rish – xayrlidir”, degan edi o'zbek romanchiligining asoschilaridan biri Abdulla Qodiri. Darhaqiqat, o'tmish o'rganilib, xulosalar chiqariladi va kelajakka poydevor qo'yiladi. Moziy xatolari, qusurlari, nuqsonlari hamda kamchiliklariga yo'l qo'yilmasligiga harakat qilinadi.

Milliy tariximizni bizgacha yetkazib kelgan tarixiy asarlar unchalik ko'p emas, borlarining ham kattagina qismi hukmdorlar mayli, hamda zamona zayliga qarab o'zgartirilgan, bir qismi yo'qotilgan. Siyosatga qarab tariximizning ko'pgina qismi soxtalashdirilgan. Birgina misol keltiramiz: Valentin Yan “Chingizzon”, “So'nggi dengizgacha”, “Botuxon” nomli trilogiyasi boshdan oxir buyuk fotih Chingizzonni qoralashga qaratilgan bo'lib, tarixiy dalillar soxtalashdirilgan. Unda bitilishicha Chingizzon buyrug'iغا ko'ra barcha kitoblar yoqilgan, Jayhun kitoblar oqizilganidan ko'priq bo'lib, kitoblar ustidan otlar yurib o'tgan deb mubolag'a qilingan. Filolog olim professor Berdiyor Berdaqov ma'lumotiga ko'ra Chingizzon yurtimizdan barcha kitoblarni avaylab kigizga o'rab, Mo'g'ulistoniga olib ketgan bo'lib, bugungi kunda Ulan Bator kutubxonalarida bobokalonlarimiz qalamiga mansub million nusxa kitoblar saqlanib kelinmoqda. Bunday ziddiyatli misollar yetaricha. Vaholanki, bugungi kunda milliy tarixchiligimiz shaxsan davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tomonidan nazoratga olinganligi, Prezidentimizning ko'rsatmasi bilan “O'zbekiston tarixi” telekanalining ochilishi, Turon Fanlar Akademiyasi, shaxsan akademik Haydarbek Bobobekov

tomonidan tariximizga oid ko'plab anjumanlar o'tkazilib, ilmiy maqolalar chop etilishi o'tmishimizga xolisona baho berish uchun omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mirzo Boburning “Boburnoma” asari ham “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'otit-turk”, Narshaxiyning “Samarqand tarixi”, “Farg'ona tarixi”, “Buxoro tarixi” kabi asarlari, Sadreddin Ayniyining “Qu'llar”, “Doxunda”, “Buxoro jallodlari” tarixiy romanlari kabi o'z zamonasini eng xolisona va mukammal yoritgan qimmatli tarixiy manba hisoblanadi.

“Boburnoma”da Mirzo Bobur o'zining shajarasi, padari Umarshayx Mirzo, saroy hayoti, notinch kechgan bolaligi, Andijon, Toshkent, Samarqand hukmdorlari, o'sha davrda qonli muhit, hokimiyat uchun bemisl janglar mukammal va chiroyli til bilan yoritilgan. Eng muhimi har bir muammoga xolislik va rostgo'ylik bilan yondoshilgan. Mirzo Bobur halim inson, dilbar shoir va haqgo'y hukmdor bo'lganligi bois hatto o'z muxolifi, hofizul Qur'on, shoir va xukmdor Muhammad Shayboniyxonga oid ma'lumotlarni ham haqqoniy bergen, o'rinsiz qoralamagan. Vaholanki, keyinchalik Mirkarim Osim va Pirimqul Qodirovlar buyuk Shayboniyxonni mutlaqo qoralab “Jayhun ustida bulutlar”, “Yulduzli



tunlar” asarlarida ko'plab noqislik va noxolislikka yo'l qo'yanlar. Shuningdek, Mirzo Bobur yurtimizdan Bobotog' orqali dastlab Afg'oniston, keyin Hindistonga hijrat qilganligi, hijrat taassurotlari, Hindiston, Panipatda kechgan qonli urushlar va Bobur sulolasini uchun ikkinchi vatanga aylanib qolgan mazkur yurt, fuqarolar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jamlagan.

Xolisona aytganda adolatli hukmdor, dilbar shoir, zakiy mutafakkir, Allohnning siddiq bandalaridan biri bo'lgan Mirzo Boburning mazkur asari yurtimiz, bobokalonlarimiz tarixiga oid eng haqqoniy va eng mukammal asarlardan biri bo'lib, uni maktab, oliygohlar dasturiga kiritish yoshlarmizning ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'lishining oldini oladi.

**Alijon FAQIROV,
O'zbekiston Yozuvchilar va
Jurnalistlari uyushmalari a'zosi,
Qutbiddin NIZOMOV,
Respublika Sog'liqni saqlash
a'lochisi**



(Bosh 1-betda)

Mamlakatimizda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirdorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlashga qaratigan maqsadlar oldimizga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi PF-60-sonli Farmoni e'lon qilindi.

Ushbu Farmondag'i vazifalar so'nggi yillardagi "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslangan bo'lib, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'tash va faol mahalla yili'da amalga oshirishga oid davlat dasturi qabul qilindi.

Ushbu Farmonda yettiha ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi. Bularga:

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamo'llilarini taraqqiyotning eng asosiy va zarrur shartiga aylantirish;

- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

- adolatlari ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

- ma'nnaviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumashariy muammollarga yondashish;

- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish kabi yo'nalishlar kiradi.

Inson qadri diqqat e'tiborimizda shuning uchun 2026 yilga qadar ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olish ko'zda tutildi. Ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish orqali ijtimoiy sug'urta tizimini yaratish, jumladan, ijtimoiy sug'urta jamg'armasini tashkil etish, kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy yordam va xizmatlarni ijtimoiy shartnomasi asosida taqdim etish, ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasini yaratish, jumladan, "Temir daftari", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" bilan integratsiya qilish hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida birinchi-to'rtinchisinf o'quvchilarini Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan bepul ovqat (nonushta yoki tushlik) bilan ta'minlash yilga qo'yish kabi vazifalar qo'yildi.

Yana bir muhim band 2023 yil 1 yanvardan boshlab pensiyani hisob-kitob qilish uchun

ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o'n barobaridan o'n ikki barobarigacha oshirilishi ta'kidlandi, ayollarga pensiya hisoblashda ularning bolani parvarishlash ta'ilida bo'lish vaqtining hammasini jamlaganda ish stajiga qo'shib hisoblanadigan 3 yillik davrni 6 yilga oshirish, bolalikdan nogironligi bo'lgan bolalarga 18 yoshgacha qaralgan davrni pensiya tayinlashda ish stajiga qo'shib hisoblash ham atiyb o'tilgan.

Mahalla instituti ahamiyatini oshirish, mahallaning "faol" modelini joriy etish, uni aholi muammolarini bevosita hal qilish, 2022 yilda esa tadbirdorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyatini samarali yo'lga qo'yishi ta'kidlandi. Bundan tashqari, barcha darajadagi rahbarlar mahallaga tushib, o'z yo'nalishi bo'yicha muammollarni o'rganishi va ularga yechim topishi tartibi joriy etilib, mahalladagi ishlarning holati vazirtlik, idora va hokimliklar faoliyatini baholashning bosh mezoni sifatida belgilandi. Mahalladann turib barcha davlat organlariga murojaat qilish ularning rahbarlari bilan muloqot qilish tizimi yaratilib, davlat va ijtimoiy xizmatlarni

ozod etilishi, o'rta ta'limga tizimini zamona tabalariiga moslashtirishi, umumiy o'rta ta'limga muassasalarida darsliklarni yangilash dasturini amalga oshirish uchun Davlat byudjetidan 605 milliard so'm ajratilishi, 141 mingta yangi o'quv o'rinnari yaratilishi va ularning soni 2026 yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazilishi belgilandi.

Hududlarda birlamchi tibbiy xizmatini "bir qadam" tamoyili asosida yo'lga qo'yib, 105 ta oilaviy shifokor punkti va 31 ta oilaviy poliklinika tashkil etish, 2022 yilda iqtidorli o'qituvchi va shifokortarning ish haqlarini malaka toifasiga qarab tabaqaqlashtirilgan holda oshirish, xalqaro ekspertlarni jaib qilgan holda o'qituvchi va shifokortlarga malaka toifalarini berish tartibi tubdan qayta ko'rib chiqilishini ta'minlashi hamda malakanib baholash ustubiyoti asosida adolatlari va shaffof tizimni joriy etish takliflar kiritish nazarda tutildi.

Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yugori o'sish sur'atlarini ta'minlash boy'icha 2022 yilda yillik infliyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023 yilda 5 foiz hamda fiskal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralar ko'rilib, keyinchalik infliyatsiya va Davlat byudjeti taqchilligi ushbu ko'rsatkichdan oshmasligi ta'mintab borilish, bunda davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformatsiya jarayonlarini yakunlab, 2026 yil yakuniga qadar bank aktivlarida xususiy sektor ulushi 60 foizgacha chiqarilishi, 2023 yildan qo'shilgan

qiymat solig'i stavkasi 12 foizgacha hamda bank, moliya va telekommunikatsiya kabi tadbirdorlik yo'nalishlarida foyda solig'i stavkasi 15 foizgacha tushirilishi, "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026 yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlari hajmini 20 foizga qisqartirish choralar ko'rilibi belgilandi.

2022 yildan boshlab bosqichma-bosqich tadbirdorlikka oid barcha majburiy talablarini yagona elektron reyestriga kiritish tartibi joriy etilishi hamda takrorlanuvchi va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablar qayta ko'rib chiqilib, yagona reyestr 2025 yil 1 iyuldan boshlab to'liq ishga tushirilishi aytilgan. 2022 yil 1 aprelga qadar tadbirdorlik sub'yeqtllarida masofaviy (onlayn) faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarining mavjudligidan hamda ularning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, litsenziya va boshqa ruxsat etuvchi hujjalarni olish tartib-taomillari quydigilarni inobatga olgan holda soddalashtirilishi, ayrim faoliyat turlariga faqat malakaviy talablarini belgilash orqali bino va inshoot, xona, asbob-uskuna, texnika vositalari, boshqa jihozlar hamda ularga bo'lgan shartlarni bekor qilinishi belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish

(Davomi 5-betda)

YANGI O'ZBEKISTON YANGI TARAQQIYOT YO'LIDA





YANGI O'ZBEKISTON YANGI TARAQQIYOT YO'LIDA

(Boshi 1, 4-betlarda)

bo'yicha belgilangan vazifalar doirasida hududlar bilan ishlashning quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tartibi o'rnatilishi ta'kidlangan:

2022-2026 yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqiladi, har chorak yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlaridagi vazifalarning bajarilishi yuzasidan xalq deputatlari Kengashlariga, Bosh vazirning o'rnbosarlari hamda vazirlik va idoralar rahbarlari esa Oliy Majlis palatalariga hisobot berishi ta'kidlangan.

Davlat boshqaruvi organlarining "Davlat - inson uchun" tamoyili asosida hududiy masalalarni hal qilishdagi mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish hamda ularning strategik yo'naliishlarni rejalashtirishga qaratilgan yangi tizim yaratishda mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilarini hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o'rganish va tahlil qilish natijasiga ko'ra ularni rivojlantirish

bo'yicha "yo'l xaritalari"ni ishlab chiqish amaliyoti yo'lga qo'yilishi, barcha bo'g'indagi davlat boshqaruvi organlarining bir yillik ish dasturini, shu jumladan, jamoatchilik ishtirokida ishlab chiqish, ularning ijro holatini doimiy e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yilishi, davlat organlarida murojaatlarni tahlil qilish, ijtimoiy so'rovlar va jamoatchilik muhokamalarini o'tkazish natijalaridan kelib chiqib, hududlar (tuman, shahar, qishloq va mahalla) kesimida o'z tuzilmalarining faoliyati bo'yicha dasturlar ishlab chiqilib, e'lon qilib borilishi, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarolarning ijro etilishi jarayonini jamoatchilik tomonidan kuzatib borish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilib borish tizimi yaratilishi ko'zda tutilgan.

Davlat xizmatlari qamrovi va tezkorligini oshirish, ularning ko'sratilishida aholining barcha qatlamlari manfaatlari inobatga olinishini ta'minlash maqsadida 2022 yilda fuqarolarga hujjatlarni berish va almashtirishda, shuningdek, o'zaro bog'liq davlat xizmatlarini murojaatni kutmasdan taklif etish amaliyoti yo'lga qo'yish, "Fugarolarning raqamli pasporti" loyihasini joriy qilish hisobiga aholidan tug'ilganlik to'grisida va haydovchilik guvohnomalari, shahodathoma va diplom kabi muayyan faktini tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilish amaliyoti bekor qilinishi ham belgilangandir.

Jazoni o'tab bo'lgan fuqarolarning kelgusida jamiyatda o'z o'rnni topishiga

amaliy ko'maklashish uchun "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi"ni berish, ushbu tizim doirasida jazoni o'tab bo'lgan va o'zining tadbirkorlik, me'morchilik, hunarmandchilik kabi yo'naliishlarda aniq loyihalarini taqdim etib, mustaqil faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga bir martalik moddiy yordam berish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Bunda yo'l infratuzilmasini xalqaro standartlarga moslashtirish, harakatni boshqarish tizimini to'liq raqamlashtirish, yo'llarda xavfsiz harakatlanish uchun barcha ishtirokchilarga munosib sharoitlarni yaratish va jamoatchilikning ushbu sohadagi ishlarda keng ishtirokini ta'minlashga hamda "Ochiq byudjet" axborot portali orqali yo'naltiriladigan mablag'lardan aynan mazkur yo'naliishda samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilishi belgilandi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Taraqqiyot strategiyasi ko'zda tutilgan vazifalar xalqning farovonligi, huquqiy va ijtimoiy himoyasi tamoyillariga asoslangan bo'lib, Yangi O'zbekistonning yangi taraqqiyot yo'lini belgilab beradi.

**Sh.BOYMURADOV,
Toshkent tibbiyot akademiyasi o'quv
ishlari bo'yicha prorektori**

ZULFIYA – MATONAT TIMSOLI ASLI

"Fazilatlar sarchashmasida Zulfiya opaning shoiralik iqtidori turar ekan, bu iqtidor shoiramizning nomini jahonga tanitgan oliy belgidir".

**Abdulla Oripov,
O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri**

Zulfiya Isroi洛va 1915 yil 1 mart kuni Toshkentda hunarmand-degrez oilasida tug'ilgan. Umri davomida shoiraning nafaqat ijodi, balki, hayoti ham o'rnak olishga arzigulik darajada ekani barchamizga ma'lum.

Zulfiya hayoti va ijodini yanada chuqur o'rganish, asarlarini baralla tarannum etish aynan Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari zimmasiga yuklanganidan nihoyatda mammunman. Nega aynan bo'lajak shifokorlar uchun Zulfiya ijodi biriktirilgan?

Shoira 1944 yili turmush o'rtog'i Hamid Olimjondan ajragandan so'ng ikki shoir uchun ijod qila boshladi. U ko'z oldimizda ayollar uchun sadoqat, vafo timsolida gavdalanadi. Aynan mana shu metinlik, sadoqat, to'siqlarga qaramay ijodni davom ettirmoqlig

biz uchun o'rnak bo'lishi kerak deb hisoblayman. Shifokor nafaqat kasbini sevishi, ilmli bo'lishi kerak, balki sabr, vafo kabi jihatlarni o'zida aks ettirmogi lozim. Birgina ayolning butun hayoti esa bizga shu yo'lda qo'llanma bo'la oladi. Ijodkor Zulfiya kabi kasbimizni sevishimiz, vijdon ila bu yo'lda xizmat qilishimiz, insoniyatni qadrlashimiz egnimizdag'i oq shifokorlik libosi kabi kasbimiz fidokorlari ekanimizdan dalolat bermaydim?

Zulfiyaga ijod olamiga erta sho'ng'igan shoira deya ta'rif berish mumkin. 17 yoshida "Hayot varaqlari" nomli ilk kitobini chop ettirgan ijodkorning intiluvchanligi barchani lol qoldirdi. Hayotidagi katta yutuqlar balki mana shu izlanuvchanligi tufaylidir? Hozirda katta hayotga endigina qadam qo'yayotgan, kasbiga ilk qadam tashlayotganlar uchun Zulfiyaning matonati-yu qat'iyati namuna bo'lsa ajab emas.

Zulfiya haqida qancha bitilsa ham kam. Lekin shuni aytu olamizki, undagi chin insoniylik tuyg'usi, sadoqati, ayollik timsoli, bardoshi nafaqat biz talabalar, shifokorlar uchun, balki butun o'zbek xalqi uchun yorqin timsol bo'la oladi. Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari esa uning ijodini tarannum etishda, kelajak yoshlarga bu merosni butun boyliklari bilan ko'sratishdan to'xtamaydi!

**Munisa SUYUNOVA,
Toshkent tibbiyot akademiyasi
1-Davolash fakultetining 206-guruh talabasi**

Hikmat



Ayol mehri – asaldekk totli. Ayol makri – zahardek xavfli.



Hikmat

MOBIL KOMPYUTER TOMOGRAFIYA TIZIMI ISHGA TUSHIRILDI

Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan O'zbekistonda tibbiy radiologiya va onkologiya sohasini rivojlantirish maqsadida Yaponiya tibbiyot korporatsiyasi bilan hamkorlikda Mobil kompyuter tomografiya tizimi ishga tushirildi.

Ushbu uskuna akademiyada nafaqat radiologiya yo'nalishi bo'yicha balki tahsil olayotgan talabalarini tayyorlash hamda yetakchi mutaxassislar tomonidan aholiga bepul tashxis yordami ko'rsatishda ham qo'llaniladi.

A k a d e m i y a r e k t o r i A.Shodmonovning so'zlariga ko'ra, kompyuter tomografiyasingning ushbu innovatsion tizimida ishlashni o'rghanish uchun akademiyaga yaponiyalik professorlar jalb etilib, ular 7 kun davomida talabalar va o'qituvchilarga ma'ruzalar, mahorat darslari va amaliy mashg'ulotlar

o'tkazadi. Bundan tashqari, akademiyada yapon professorlari hamda mahalliy mutaxassislar bilan birgalikda bemorlarni tekshirib, kasalliklarni aniqlaydi.

- Akademiya va Yaponiya institutlari o'rtasidagi hamkorlik yanada faollashdi. Bugungi kunda akademiyamizda JICA stajirovka dasturining 3 nafar bitiruvchisi ishlaydi. Shuningdek, yaponiyalik 1 nafar mutaxassis akademiyaga professor sifatida ishga qabul qilindi. Shu bilan birga, 2022-yilning o'zidayoq Yaponianing tibbiyot korporatsiyasi bilan birgalikda akademiya negizida




talaba va o'qituvchilar uchun yapon tili kurslarini yo'lga qo'yish rejalashtirildi,

- deydi A.Shodmonov.

**Mohigul QOSIMOVA,
O'ZA**

HAMKORLIKDA MAXSUS O'QUV KURSI TASHKIL ETILDI



Toshkent tibbiyot akademiyasi Koreya Universiteti va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi bilan hamkorlikda "O'zbekiston TTAda epidemiologik tekshiruvlar va tadqiqotlar o'tkazish salohiyatini oshirish" mavzusidagi xalqaro qo'shma ilmiy-amaliy grant loyihasi doirasida "Sifat nazoratini tushunish.

Atrof-muhit va ichki muhitga oid tahlil natijalarining aniqligi va to'g'riligini boshqarish va kafolatlash" mavzusidagi maxsus o'quv kursi bo'lib o'tdi.

Unda Jangang Universiteti professori Lee Sing Gil tomonidan Atrof-muhit va ishchi muhiti omillarining zamonaviy laboratoriya-uskunalarida Atom-absorbsion va Gazo-xromatografik tahlil usullari va tahlil natijalarini sifat nazorati to'g'risida ta'lif olib borildi.

O'quv kursi nazariy va amaliy shaklda amalga oshirilib, nazariy qismida Professor Lee Sing Gil tomonidan ma'ruzalar bo'lib o'tdi,

amaliy qismida esa laboratoriyaada mavjud zamonaviy uskunalarida Markaz rahbari Baxriddin Nurmatov ishtirotida tahlil ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, o'quv kursida TTA-KU hamkorligidagi ilmiy markaz xodimlari, Atrof-muhit gigiyenasi, Kommunal va mehnat gigiyenasi xodimlari va onlayn (ZOOM) shaklida magistratura bo'limi talabalarini faol ishtirot etib, o'z tajribalarini oshirdi. Bunday o'quv kurslari profilaktik tibbiyot sohasida yetuk kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

TTA Matbuot xizmati





Turg'unpo'lat Daminov 1941 yilning 26 aprelida Toshkent shahrida xizmatchilar oilasida dunyoga keldi. 1958 yilda o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, shu yili tanlovdan muvaffaqiyatli o'tib, Toshkent davlat tibbiyat instituti talabasi bo'ldi.

1964 yilda T.Daminov institutni imtiyozli diplom bilan tamomladi. O'sha yildan buyon u shogird tadqiqotchilikdan boshlab, hozirgi kunda kafedra professori sifatida yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida ishlab kelmoqda edi.

1969 yilda «К вопросу о клиническом течении тифопаратифозных заболеваний у детей в сочетании с туберкулезом» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. «Клинико-иммунологические особенности острого и затяжного вирусного гепатита А и В у детей» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi T.Daminov Rossiya Tibbiyat Fanlari Akademiyasi akademigi V.Uchaykin va Latviya FA akademigi A.Blyuger rahbarligida Latviya hepatologik markazi va II Moskva Meditsina instituti bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasи bazalarida bajardi, 1986 yilda Rossiya Meditsina Akademiyasi Pediatriya Ilmiy tekshirish institutida muvaffaqiyatli himoya qilindi.

T.Daminovning yuqori malakali mutaxassis va ilmiy xodim sifatida shakllanishida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobları, professorlar X.Yunusova va O.Maxmudov kabi olimlarning hayotiy tajribalari va kasbga oid ko'nikmaları

**O'zbekiston tibbiyoti og'ir judolikka uchradi.
O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
akademigi, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan vrach",
Toshkent tibbiyat akademiyasining yuqumli va bolalar
yuqumli kasalliklari kafedrasi professori Turg'unpo'lat
Obidovich Daminov 2022 yil 6 fevral kuni 81 yoshida
vafot etdilar.**

muhim o'rinni egalladi. T.Daminov ilmiy ishlarining natijalari milliy va xalqaro simpoziumlarda, kongresslarda, pediatriya s'ezdlarida, plenumlarda, muammoli hay'at yig'ilishlarida va fanlararo konferensiya doimiy ravishda bayon qilingan. U 500 tadan ortiq doimiy ravishda chop etilayotgan nashrlarning, ulardan 6 ta darslik, 14 ta monografiya, 45 tadan ortiq uslubiy tavsiyanomalar va qo'llanmalar muallifi hisoblanadi. Uning rahbarligida 21 ta doktorlik va 43 tadan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Uning tomonidan butun bir yirik olimlar - pediatrlar va infeksiyonistlarning atoqli arboblari yetishtirilgan, respublikada keng miqyosda ma'lum bo'lgan infeksiyonistlar

u Polsha Meditsina Akademiyasi haqiqiy a'zosi etib saylangan. 2004 yilda Rossiya Federatsiyasi tibbiytexnik fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi) etib saylandi. Ilmiy ixtirolari uchun Albert Shveytser xalqaro oltin medali bilan taqdirlangan.

T.Daminovning ilmiy dunyoqarashining kengligi va boy klinik tajribasi hozirgi kunda aholi sog'lig'ini saqlashda mamlakat tizimi uchun ahamiyatlidir. Bunga tasdiq tariqasida - T.Daminovning ilmiy grant dasturlarining rahbari, yuqumli kasalliklari bo'yicha ixtisoslashtirilgan seminar raisi, O'zbekiston Tibbiyat jurnali bosh muharrir o'rinnbosari,

Markaziy Osiyo tibbiyat jurnali tahrir hay'atining a'zosi ekanligi asos bo'lib hisoblanadi, shuningdek, u qator ilmiy-amaliy dasturlar koordinatori va eksperti, ilmiy simpoziumlarning va amaliy shifokorlar uchun matablarning taskilotchisi hisoblangan. Juhon Sogliqni Saqlash Tashkiloti (JSST) eksperti bo'lgan vaqtida T.Daminov respublikamizda poliomielitni tugatish yo'nalihsida o'zining katta hissasini qo'shgan.

Xayriohlik, yuqori mas'uliyatlilik, yuksak aql-zakovat va professionalizm, shuningdek, tabiatan kamtarinlik bilan ziyolilikning mujassamligi - bu fazilatlarning barchasi T.Daminovni har doim boshqalardan ajratib turar edi.

Taniqli fan arbobi, mashhur olim, mohir pedagog, barchamizning aziz ustozimiz Turg'unpo'lat Obidovich Daminovning yorqin xotirasi barchamizning qalbimizda mangu saqlanib qoladi.

Oxiratingiz obod bo'lsin muhtaram Ustoz!

**Toshkent tibbiyat akademiyasi
rahbariyati**

Toshkent tibbiyat akademiyasi akademik litseyi rahbariyati, pedagog xodimlari hamda ko'p sonli o'quvchi yoshlar nomidan akademik litseyining Moliya ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari

Azizjon Ubaydullayev Qudratillayevichning

bevaqt vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor etadi.





«Onalar haqida»

(«Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobidan satrlar)



Hamma ona – bir ona

Amerika bilan O'zbekiston orasi o'n besh ming chaqirim. Avstraliya bilan Kanada orasi yigirma ming chaqirim. Ammo amerikalik senatorning xotini o'z farzandini o'zbekistonlik dehqonning xotinidan kamroq yaxshi ko'rmaydi. Avstraliyalik aborigen ayol o'z farzandini kanadalik millioner ayoldan ko'proq yaxshi ko'rmaydi.

So'qqabosh ayol

Beba boshi bilan yaxshi farzand o'stirayotgan ayol palaponlarini qanoti ostiga olib, burgutdek himoya qilayotgan kaptarga o'xshaydi.

So'qqabosh ayolni o'ksitish go'dakni xo'rashdan og'irroq gunoh...

Onamning o'giti

Yig'lab turgan go'dakning begonasi bo'lmaydi.

Qiyos

Dunyoda Onaga qiyoslash mumkin bo'lgan ikkita narsa bor.

Ona tili, Ona Vatan.

Abadiy jumboq

Ayol – shunday jumboqlar kitobiki, hali hech kim uni oxirigacha o'qiy olgan emas.

Ne'mat

Ayollar! Yig'lab ko'nglingizni bo'shatishdek ne'matni ato etgani uchun Yaratganga shukronalar qiling!

Oftob chiqar olamga

Dunyoda hech qanday chegarani tan olmaydigan ikkita mojiza bor. Biri – Quyosh nuri, ikkinchisi – Ona mehri.

Qirq jon

Xotin kishining joni qirqta bo'ladi, desalar ajablanmang. Negaki u bitta jonni o'ziga olib qolib, o'ttiz to'qqiztasini farzandlariga beradi...

Sinov

Bir narsani ko'p kuzatdim. Ona ovqatga o'tirgan zamon chaqaloq yig'layveradi. Keksalar, bunaqa paytda bolani shayton chimchilaydi, deydilar. Bilmadim... Xudoning o'zi kechirsunu, menimcha gap shaytonda emas. Bu – Tangrining ona mehrini sinash usullaridan biri bo'lsa ajabmas...

O'tkir HOSHIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI

(2022 yil fevral)

No	Kafedra	Lavozim, shtat birligi
1-son davolash fakulteti		
1.	1-son umumiyy va bolalar xirurgiya	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Nevrologiya va tibbiy biologiya	assistant – 1,0
3.	Oftalmologiya	kafedra mudiri - 1.0
2-son davolash fakulteti		
1.	2-son bolalar kasallikkari	assistant – 1,0
Tibbiy pedagogika fakulteti		
1.	2-son travmatologiya, ortopediya, harbiy dala xirurgiya va neyroxiyurgiya	kafedra mudiri - 1.0
Tibbiy profilaktika fakulteti		
1.	Gistologiya va tibbiy biologiya	katta o'qituvchi – 1,0
2.	Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi	dotsent – 1.0 assistant – 1.0
3.	Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya	assistant – 1.0
Menejment, tibbiy biologiya, tibbiy biomuhandislik va OMX fakulteti		
1.	O'zbek va xorijiy tillar	chet tili: o'qituvchi – 1,0 katta o'qituvchi – 1,0
2.	Tibbiy va biologik kimyo	katta o'qituvchi – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limida qabul qilinadi. Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

MUASSIS:
**TOSHKENT
TIBBIYOT
AKADEMIYASI**

MUHARRIR
**TURDIQUL
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAYATI:
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV
kompyuterida sahilandi va Toshkent
Tibbiyot akademiya RISOGRAFida
400 nusxada chop etildi.
Manzilimiz:
Toshkent shahri, Farobiy
ko'chasi, 2-uy
Nashr uchun ma'sul
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda
02-0049 raqam bilan ro'yxitga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlarni uchun
mualliflar javobgardir
Bepul tarqatiladi